

LYUDOVIK XV DAVRIDA FRANSUZ DIPLOMATIYASI.

Beknazarov Javoxir Azimjon o'g'li

E-mail: javohir_beknazarov@gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fransiya qiroli Lyudovik XV hukmronligi va uning diplomatiyasi haqida to'xtalib o'tilgan. Lyudovik XV davri Fransiya tarixida muhim voqealar va o'zgarishlarga boy bo'lgan. U o'z davrida ko'plab mustamlakalar egalladi, yirik urushlarda ishtirok etdi va diplomatik aloqalar orqali Fransiyaning xalqaro mavqeini rivojlantirdi. Ayniqsa, Fontenoy jangi, yetti yillik urush kabi voqealar uning hukmronligining asosiy nuqtalari sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, Fleuri boshqaruvi davri va Fransiyaning ko'plab xalqaro qarama-qarshiliklarga duchor bo'lishi kabi ichki siyosiy jarayonlar ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Lyudovik XV hayoti va faoliyati, Yetti yillik urush va yangi ittifoqlarning yuzaga kelishi, Fleuri boshqaruvi davrida diplomatik aloqalar, Avstriya taxti uchun kurash.

Fransiya tarixida sezilarli iz qoldirgan va eng ko'p hukmronlik qilgan Lyudovik XV haqida va uning diplomatiyasi haqida quydagi kichik bir izlanish orqali ko'rib chiqsak. Lyudovik XV, Sevimli Lui nomi bilan tanilgan. U 1715 yil 1-sentabrdan 1774 yilda vafotigacha Fransiya qiroli bo'lgan. U o'zining bobosi Lyudovik XIV o'rniga taxtga chiqqan. 1723 yil 15 fevralda u voyaga yetgunga qadar qirollikni uning amakisi Orlean gersogi Fleuri, Fransiyaning regent sifatida boshqargan. U qariyb 59 yil hukmronlik qilgan.¹ U davrida Fransiya uchun yangi mustamlakalar zabt etildi yoki nikohlar tuzish yo'li bilan qo'shib olindi va yo'qotishlar ham bo'ldi. 1748 yilda Lyudovik Avstriya Gollandiyasini Fransiya qaytardi, 1745 yildagi Fontenoy jangida g'alaba qozondi. U 1763 yildagi yetti yillik urush yakunida Shimoliy Amerikadagi mustamlakalarini Buyuk Britaniya va Ispaniyaga berdi. Lotaringiya gersogligi va

¹ Gueganic, Anne-Laura, Loius XV. Paris, Atlas -2008, 13-p.

Korsika Respublikasini Fransiya qirolligiga qo'shdi. Uning asosiy g'alabasi Fontenoy jangi 1745 yil 11-mayda hozirgi Belgiyadagi Tournai yaqinida bo'lib o'tgan Avstriya taxti uchun jangda g'alaba qozonadi. Fransiyaning Yevropadagi jang maydonidagi ustunligini tiklaydi. Biroq, 1745 yil dekabrda kelib, Lyudovik XVning moliya vaziri Fransiyaning molyaviy inqiroz yuzasiga kelib qolganidan ogohlantirdi, bu esa 1746 yil may oyida Breda kongressida tinchlik muzokaralariga olib keldi. 1746 yilda Rokuda, 1747 yilda Lauffeldda va 1748 yilda Maastrixtda erishilgan g'alabalarga qaramay, urushning badali va Britaniya dengiz floti, Fransiyaning iqtisodiy mavqeini yomonlashtirdi. Natijada, 1748 yil noyabrda Eks-la-Shapelle shartnomasidan so'ng Avstriyadan Gollandiyadagi yerlarini qaytarib oldi.

Yevropaning ko'pgina buyuk davlatlari qatnashgan yetti yillik urush asosan Yevropa, Amerika va Osiyo - Tinch okeani mintaqasida bo'ladi. Bu davrda bir vaqtda sodir bo'lgan urushlarga Fransiya va Hindiston urushi (1754-1763), Karnatik urushlari va Angliya-Ispan urushi (1762-1763) kiradi. Qarama-qarshi ittifoqlar Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan boshqarildi, ikkala davlat ham boshqa davlatlar hisobiga xalqaro ustunlikni qo'lga olishga intildi. Prussiya, nemis knyazliklarida kengroq ta'sir o'tkazishga intildi, Avstriya esa oldingi urushda Prussiya tomonidan bosib olingan Sileziyani qaytarib olishni va Prussiya tarafda bo'lishni xohladi.

1756 yilgi Diplomatik inqilob sifatida mashhur bo'lgan an'anaviy ittifoqlarning qayta tuzilishi natijasida Prussiya Britaniya boshchiligidagi koalitsiyaning a'zosi bo'ldi. Shu bilan birga, Prussiya, Avstriya, Fransiya, Saksoniya, Shvetsiya va Rossiya bilan ittifoqchilik qilib, Burbon va Gabsburg sulolalari o'rtasidagi ko'p asrlik urushlarga barham berdi. Ispaniya 1762 yilda Fransiya bilan rasman ittifoq tuzdi. Ispaniya Angliyaning ittifoqchisi bo'lgan Portugaliyani bosib olishga urinib ko'rdi va o'z qo'shinlari bilan Liberiya ingliz qo'shinlariga qarshi kurash olib bordi. Nemis knyazliklari yetti yillik urushga qo'shildi va urushda qatnashayotgan tomonlarga yollanma askarlar yetkazib berdi.

Mustamlakachilik to'qnashuvlaridan 2 yil o'tgach, urush rasman e'lon qilinganida, yetti yillik urush o'ziga xos teatrqa aylanadi va Fransiyaning Amerika qit'asida quruqlikdagi qo'shinini olib chiqib ketadi.

1763 yilda Fransiya, Ispaniya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi Parij shartnomasida Angliyaga ikkita yirik port - G'arbiy Hindistondagi Gavana va Filippindagi Maniladan Ispaniya mahrum bo'ldi. Yevropada ko'plab kuchlarini jalb qilgan bu katta jang Avstriyaning, Prussiyadan Sileziyani qaytarib olish istagiga qaratilgan edi. Gabsburg shartnomasi Saksoniya, Avstriya va Prussiya o'rtasidagi urushni 1763 yilda tugatdi. Buyuk Britaniya dunyoda hukmron mustamlakachi va dengiz kuchlari sifatida o'zining yuksalishini boshladi. Fransiyaning Yevropadagi ustunligi Fransiya inqilobidan keyin to'xtatildi. Prussiya o'zining buyuk davlat maqomini saqlab qoladi va Avstriya bilan nemis knyazliklari ichida hukmronligini saqlash uchun kurash olib bordi va shu bilan yevropada kuchlar muvozanatini o'zgartirdi. Parij shartnomasida 1763 yil 10 fevralda Buyuk Britaniya, Fransiya va Ispaniya qirolliklari tomonidan Portugaliya bilan kelishilgan holda, Buyuk Britaniya va Prussiyaning Fransiya va Ispaniya ustidan qozongan g'alabasidan keyin 1763 yil 10 fevralda Parij shartnomasi imzolangan. Urushda, Shartnomaning imzolanishi Fransiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi Shimoliy Amerika ustidan nazorat qilish bo'yicha urushga rasman chek qo'ydi² va Amerikada inglizlar davrining boshlanishini belgiladi.

Buyuk Britaniya Fransiyadan urush paytida qo'lga kiritgan hududlarning ko'p qismini tortib oldi. Bundan tashqari Buyuk Britaniya yangi dunyoda Rim katolik cherkovini himoya qiluvchi kuch maqomiga ega bo'ldi.³ Shartnomaga Prussiya va Avstriya kiritilmadi, chunki ular Parij shartnomasidan alohida shartnoma - Gabsburg shartnomasini imzoladilar.

Fleuri boshqaruvi davri va diplomatik jarayonlar: 1726 yildan 1743 yilgacha Fleuri qirol Lyudovik XVning roziligi bilan Fransiyaning amalda boshqardi. Fleuri qirolni obro'sini tushirdi va U qirolga qirolicha bilan siyosatni muhokama qilishini

² Yetti yillik urush, Amerika Qo'shma Shtatlarida fransuz va hind urushi deb nomlanadi.

³ A. Lovell C. The copy of contract of Paris. Paris-1892. 6-p.

cheklab qo'ydi. Tashqi tarafdin bu Lyudovik XV hukmronligining eng tinch va farovon davri edi, lekin u kuchayib borayotgan muxolifat kuchlarga qarshi chiqqa olmadi. Xususan, Parlament a'zolari papaning Yunigenitus ta'limotini yaratishdi. Fransiya qonunchiligining bir qismi bo'lgan va Parlamentdagi har qanday bahs-munozaralarni taqiqladi. U, Fransiya dengiz floti kuchlari salmog'ini kamaytirdi.

Lyudovikning moliya vaziri, Mishel Robert fransuz puli qadrini barqarorlashtirdi. Misheldan so'ng o'g'li, Filiber Orri ispanlar urushi tufayli yuzaga kelgan molyaviy inqrozni sezilarli darajada kamaytirdi. Fleuri hukumatining so'nggi ikki yilida qirollik byudjetini barqarorlashtirishga muvaffaq bo'ldi, bu boshqa qirollar hukmronlik davrida hech qachon qayta takrorlanmadi.⁴ Fleuri, parlamentida "Gallikanlar" deb ataladigan diniy repressiya siyosatini davom ettirdi. Boshqaruvning dastlabki yillarida Fleuri va uning tashqi ishlar vaziri Germen Lui Shovelin, Shimoliy Amerika va G'arbiy Hindistondagi mustamlakachilik raqobatiga qaramay, Buyuk Britaniya bilan Fransiya ittifoqini, tinchlikni saqlashga intilishdi. Ular shuningdek, Lyudovik ispan malikasiga uylanishdan bosh tortganida, ispan qirolining g'azabidan larzaga kelgan Ispaniya bilan juda qiyin bo'lgan ittifoqchilikni tikladilar. 1729 yilda qirolning o'g'il merosxo'ri tug'ilishi Fransiyadagi taxtga da'vogarlik xavfini yo'qotdi. Biroq, Yevropa sahnasida yangi kuchlar, xususan, Buyuk Pyotr va uning vorisi Yekaterina davridagi Rossiya paydo bo'ldi. Prussiya va Karl VI davrida Muqaddas Rim imperiyasi Usmonlilar imperiyasidan tortib olingan hududlar bilan janubi-sharqiy Yevropada Serbiyagacha tarqoq, ammo kuchli imperiya tuzdilar va nikoh orqali katolik Niderlandiyasini (shu jumladan Belgiya), Milan va Neapol qirolligini qo'lga kiritdilar.⁵

Sharqiy Yevropada Fransiyaga qarshi yangi koalitsiya to'plana boshladi, 1726 yil 6 avgustda Prussiya, Rossiya va Avstriya o'rtasida imzolangan mudofaa shartnomasi bilan tasdiqlandi. 1732 yilda koalitsiya Polsha taxtini uchun Fransiya bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnash keldi. Polsha qirolini Avgust II vafot etgan edi va uning rasmiy merosxo'ri Fransiya qirolchasining otasi Stanislav I Lechinski edi. Xuddi shu yili Rossiya,

⁴ Bluche Fransua. Louis-XV. Paris, Perrin-2003y.57-58 –p.

⁵ Antonie.Michel, "Louis XV" (1989), Paris. 254-255-p.

Prussiya va Avstriya Stanislas I ni taxtdan chetlatish to'g'risida yashirin kelishuv imzoladilar va boshqa nomzod Avgust III nomzodini merosxo'rlik davosiga loyiq deb hisobladilar. Bu esa vafot etgan Polsha qirolining ikki merosxo'ri o'rtasida Polsha taxti uchun kurashni keltirib chiqardi. Stanislas I Varshavaga keladi va u yerda 12-sentyabrda toj kiyadi. Rossiya o'z nomzodini qo'llab-quvvatlash uchun tezda o'z rus polklarini Polshaga olib kirdi. Stanislas I Dansig portiga qochishga majbur bo'ldi. 5-oktyabrda Rossiya qo'llagan Avgust III Varshavada toj kiydi. Kardinal Fleuri tomonidan tashkil etilgan diplomatik missiyasini polshaga jo'natadi. U birinchi navbatda Angliya va Gollandiya, Ispaniya va Sardiniya qirol bilan ittifoq tuzib, urushga aralashmasliklari haqida kafolat oldi. 1733 yil 10-oktyabrda, Lyudovik Avstriyaga qarshi rasman urush e'lon qildi. Fransuz armiyasi Lotaringiya gersogligini, keyin esa Elzasni egallab oldi. Alp tog'larini kesib o'tib, 3-noyabrda Milanni egalladi va Sardiniya qiroliga topshirdi. Fleuri Polsha taxtini Dansigda, rus floti va armiyasi tomonidan qamal qilingan Stanislasga qaytarish uchun o'z harakatini boshlaydi. Fransuz flotining katta qismini Kopengagen yaqinidagi poligyondan Dansigga jo'natish o'rniga, u Brestga qaytishni buyurdi va ikki ming askardan iborat kichik bir eskadronni yubordi, shiddatli janglardan so'ng kemalar ruslar tomonidan cho'ktirildi. 3 - iyul kuni Stanislas I yana Prussiyaga qochishga majbur bo'ldi va u yerda Prussiya qirol Frederik Uilyam I ning Kenisberg qal'asida qoldi. Urushni tugatish uchun Fleuri va Charlz VI juda zo'r diplomatik kelishuv haqida muzokara olib borishdi.⁶ Sardiniya qirol Lombardiyadagi ayrim hududlarni oldi, Sardiniyaliklar esa Parma va Plaisans evaziga Neapolni qaytarib olishadi.

1739 yil sentyabr oyida Fleuri yana bir diplomatik muvaffaqiyatga erishdi. Fransiyaning Muqaddas Rim imperiyasi va Usmonli imperiyasi o'rtasidagi urushda vositachilik qilishi Belgrad shartnomasiga (1739 yil sentyabr) olib keldi bu shartnoma XVI-asr boshidan Gabsburglarga qarshi Fransuz-turk ittifoqidan manfaatdor bo'lgan Usmonli imperiyasini qo'llab-quvvatladi. Ushbu muvaffaqiyatlar bilan Lyudovik XVning obro'si yanada oshadi.

⁶ Jeremy Black, From Louis XIV to Napoleon. 2013-y.172-p.

1740 yil 29-oktabrda qirol choparlaridan biri, Fontenbleoda ov qilayotgan qirol Lyudovik XVga Prussiya imperatori Karl VI vafot etgani va uning o'rniga uning qizi Mariya Tereza taxtga chiqishi haqidagi xabarni yetkazdi. Ikki kunlik kengashdan so'ng, Lyudovik shunday dedi: "Bunday sharoitda men umuman aralashishni xohlamayman. Men qo'llarimni cho'ntagimda qoldiraman, agar ular protestant imperatorini saylamoqchi bo'lmasalar." Bunday munosabat Gabsburglar imperiyasining ayrim qismlarini egallash imkoniyatini ko'rgan Fransiya ittifoqchilariga yoki bir asr davomida Avstriyaga qarshi kurashda shon-shuhrat qozongan Lyudovik generallariga yoqmadi. Prussiya qirol 31 mayda vafot etdi va uning o'rniga uning o'g'li Fridrix Buyuk keldi, va u Mariyaning taxtga chiqishiga qarshi chiqdi. 1740 yil 17- dekabrda Fredrix Avstriyaning Sileziya viloyatiga bostirib kirdi, keksayib qolgan Kardinal Fleuri bu urushga qarshi chiqish uchun yetarli qudratga ega emas edi. Fleuri o'zining eng yuqori martabali generali Charlz Lui Avgust Fuketni, Duk de Belle-Islni, Marechal de Belle-Isleni, Nikolay Fuketni, Frankfurtga elchi qilib yubordi. Elchilar, Avstriya taxtiga Bavariya nomzodini qo'llab-quvvatlash orqali urushni oldini olish bo'yicha taklifni ilgari surishdi. Buni xohlamagan prussiyalik Marechal Avstriyaga qarshi urushni boshlaydi. Fransuz va Bavariya qo'shinlari tezda Lintsni egallab, Pragani qamal qildilar. 18-mayda Fleuri Fransiya, Prussiya, Ispaniya va Bavariyani, keyinchalik Polsha va Sardiniyani birlashtirgan yangi ittifoq tuzdi. Biroq, 1742 yilda urush muvozanati Fransiyaga qarama-qarshi tomonga o'zgardi. Britaniya qirol, Avstriya tomonida urushga qo'shildi va Germaniyada fransuzlarga qarshi kurashayotgan ingliz askarlarini salmog'ni oshiradi. Mariya Tereza boshchiligidagi Vengriya armiyasi Lintsni qaytarib olib, Myunxengacha Bavariyaga yurish qildi. Iyun oyida Prussiya qirol Fridrix avstriyaliklardan Sileziyani qo'lga kiritgandan so'ng, Fransiya bilan ittifoqdan chiqdi. Fransiya moliya vaziri Orri urushni moliyalashtirish uchun ayrim soliqlarni tiklashga majbur bo'ldi. Sentyabr oyida fransuz qo'shinlari Germaniyani tark etishga majbur bo'ldi. 1744 yilda Niderlandiya hududi urushning asosiy jang maydoniga aylandi va fransuzlarning pozitsiyasi yaxshilana boshladi. Buyuk Fridrix Fransiya tomonida urushga qayta qo'shilishga qaror qildi. Lyudovik XV

o'z qo'shinlarini Niderlandiyaga muvaffaqiyatli jang olib borishi uchun Marechal Moris de Saksga, general unvonini berdi. Lyudovik g'alaba qozondi. Qirol general Morris de Saksga g'alabalari uchun mukofot sifatida Luara vodiysidagi Kambord saroyini berdi. Lyudovik tomonidan Eks-la-Chapelle shartnomasi bilan erishilgan tinchlik atigi yetti yil davom etdi. 1755 yil avgust oyining oxirida Avstriya qrolichasi Mariya Tereza, Lyudovik XVga xat yozdi, uni Avstriyaning Parijdagi elchisi qirolga topshirish uchun Sinyora de Pomapadurga topshirdi. Bu xatda u hali ham Fransiya va Angliyaning ittifoqchisi bo'lgan Prussiyaning kuchayib borayotgan tahdidlarini yo'q qilish uchun Avstriya va Fransiya o'rtasida yashirin ittifoq tuzishni taklif qildi. Yangi dunyoda Angliya va Fransiya o'rtasida nizolar allaqachon boshlangan edi. Amerikada fransuzlarga qarshi ingliz Jorj Vashington tomonidan hujumlar uyushtirildi. 1752 yilda fransuz elchisi Jozef Kulon de Jumonvil o'ldirilganidan keyin, fransuzlar qo'shimcha kuchlarni yuborib, Jorj Vashington va uning askarlarini chekinishga majbur qilishdi.

E'lon qilinmagan Fransiya va Hindiston urushi, 1755 yilda inglizlar 300 ta fransuz savdo kemalarini talon taroj qilishadi. 1756 yil yanvarda Lyudovik Londonga ultimatum yubordi, u Britaniya hukumati tomonidan rad etildi. Bir necha oy o'tgach, 1756 - yil 16-yanvarda Buyuk Prussiya qiroli Fridrix Buyuk Britaniya bilan ittifoqchi bo'lib, Vestminster shartnomasini imzoladi. Lyudovik 1756 yil 1-mayda Avstriya bilan rasmiy mudofaa shartnomasini, birinchi Versal shartnomasini muxrlab, tezda javob qaytardi. Bu Fransiyaning Avstriya bilan qariyb ikki yuz yildan beri davom etayotgan tarixiy nizosini butunlay o'zgartirdi va bu ko'pchilikni hayratda qoldirdi.

Lyudovik 1756 yil 9-iyunda Buyuk Britaniyaga urush e'lon qildi va g'alabaga umid qildi. O'rta yer dengizidagi fransuz floti 1756 yil Minorka jangida inglizlarni mag'lub etdi va bu orolni egallab oladi. 1759 yilda inglizlar G'arbiy Hindistondagi Martinika va Gvadelupani, Port-Luis va Kvebekni egallab olishdi. Dengiz kuchlarining bir qator mag'lubiyatlari, Lyudovik XVni Britaniyaga bostirib kirish rejalaridan voz kechishga majbur qildi. Hindistonda Pondicherridagi fransuz koloniyasi inglizlar tomonidan qurshab olingan va keyingi yili taslim bo'ladi. 1760 yil 8 sentyabrda,

Kanadadagi fransuzlar hukmronligiga barham berdi. Martinika oroli 1762 yilda inglizlar qo‘liga o‘tdi.⁷

Xulosa qilib aytganda Lyudovik XVning hukmronligi Fransiya uchun murakkab va ko'p qirrali davr bo'ldi. U o'zining diplomatik qobiliyatlari va tashqi siyosatdagi faoliyatlari bilan mamlakatni ko'plab yutuqlarga olib keldi. Xususan, Fontenoy jangidagi g'alabalar va Fransiyaning mustamlakalarini kengaytirishi uning tarixdagi o'rnini mustahkamladi. Biroq, uning hukmronligi davomida moliyaviy inqirozlar, ichki siyosiy qarama-qarshiliklar va Yetti yillik urushda yo'qotishlar ham mavjud bo'ladi. Bu davrda Lyudovik XV ning tashqi siyosati ko'plab o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Shuningdek, Fransiyaning Yevropadagi va dunyodagi mavqeini o'zgartirdi. Shuning uchun uning hukmronligi nafaqat muvaffaqiyatlar, balki yo'qotishlar bilan ham esda qoladi, va bu davr Fransiya tarixida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Collen Jones, “Great nation”, London-2002
2. Gueganic, Anna Laura, “Lous-XV”, Paris, Atlas -2008.
3. Martson Daniel, “France –Indian wars 1754 -1760”, Oaspsey-2002.
4. A. Lovell, “The copy of contract of Paris”, 1892.
5. Fransua Bluche, “Loius – XV”, Paris, Perrin-2003.
6. Antonie Mishel, “Louis – XV”, Paris, Pluriel-1989.
7. Jeremy Black, “From Louis XIV to Napoleon”, 2013.
8. Bekmurodovna G. T. In the early stages of relocation policy features and methods //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – С. 110-112.
9. Guarantees of Equal Opportunities and Equal Rights for Men and Women, Including Girls
10. G Tursunova - SYNAPSES: Insights across the disciplines, 2024

⁷ Collen Jones, Great Nation, London-2002. 230-p.

11. Mardiyeva G. XX ASR 20-YILLARI O 'ZBEKISTONDA: SAMARQAND VILOYATI IJTIMOIIY VA MADANIY HAYOTIDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI //Issue 2 of 2024 (144/2). – 2024. – Т. 2. – №. 153. – С. 5-10.
12. Mardiyeva G. XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 4. – С. 70-75.
13. Abdug'aniyev, Bekzod. "O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 5.5 (2025): 57-64.
14. Abduvali o'g, Abdug'aniyev Bekzod. "USMONLI HUKMDORI QONUNIY SULTON SULAYMON VA O'ZBEK XONLARI UBAYDULLAXON VA ABDULATIFXON O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR." Научный информационный бюллетень 7.1 (2025): 863-871.
15. Azimjon o'g'li, Beknazarov Javoxir. "POLITICAL SYSTEM DURING THE REIGN OF BOQI MUHAMMADKHAN AND VALI MUHAMMADKHAN IN THE BUKHARA KHANATE." SHOKH LIBRARY 1.10 (2025).
16. Azimjon o'g'li, Beknazarov Javoxir. "DIPLOMATIC RELATIONS OF ABDULAZIZKHAN IN THE BUKHARA KHANATE." SHOKH LIBRARY 1.10 (2025).
17. Azimjon o'g'li, Beknazarov Javoxir. "THE ESTABLISHMENT OF BUKHARA KHANATE." SHOKH LIBRARY (2025).
18. Bahronova, Durnigor, and Javoxir Beknazarov. "IN THE BUKHARA KHANATE THE ESTABLISHMENT OF THE DOR USH SHIFA (HOSPITAL) BY SUBHONQULIKHAN." International Journal of Artificial Intelligence 1.2 (2025): 353-356.

19. Azimjon o'g'li, Beknazarov Javoxir. "ABU RAYHAN MUHAMMAD IBN AHMAD AL-BIRUNI'S WORK OF CHRONOLOGY OF ANCIENT NATIONS." SHOKH LIBRARY (2025).
20. Azimjon o'g'li, Beknazarov Javoxir. "CULTURAL LIFE IN CENTRAL ASIA DURING THE TIMURIDS DYNASTY." SHOKH LIBRARY (2025).